



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **291 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi o'zgarishsiz qolgan
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **297 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar oyida Respublikada 330 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 153 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 44,1 % kamaygan hamda ularning soni 33 tani tashkilot etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 291 taga (2,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14033 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Nukus shahrida (32,8 %), To'rtko'l (9,8%), Beruniy (8,4 %) va Amudaryo (7,2 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,
2018 yilning 1 fevral holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Qoraqalpogiston Respublikasi	14676	100,0	14033	100,0
Nukus sh.	4747	32,3	4605	32,8
<i>tumonlar:</i>				
Amudaryo	1037	7,1	1007	7,2
Beruniy	1235	8,4	1180	8,4
Qanliko'l	400	2,7	382	2,7
Qorao'zak	423	2,9	417	3,0
Kegeyli	447	3,0	438	3,1
Qo'ng'iro't	836	5,7	774	5,5
Mo'ynoq	231	1,6	222	1,6
Nukus	568	3,9	540	3,8
Taxiatosh	321	2,2	284	2,0
Taxtakopir	271	1,8	262	1,9
To'rtko'l	1516	10,3	1380	9,8
Xo'jayli	791	5,4	739	5,3
Chimboy	571	3,9	542	3,9
Shumanay	351	2,4	340	2,4
Ellikkala	931	6,3	921	6,6

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,6 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

■ faoliyat ko'rsatayotganlar ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,5 % savdoda, 12,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 10,5 % sanoatda, 9,8 % qurulishda, 5,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,4 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 31,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,2 f.p), savdoda (-0,8 f.p), tashish va saqlashda (-0,4 f.p), axborot va aloqada (-0,3 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,0 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+1,2 f.p.), qurulishda (+0,0 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.), shuningdek tashish va saqlashda hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,5 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktida

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,8	3	-1,2
Savdo	20,5	21,3	-0,8
Tashish va saqlash	5,4	5,8	-0,4
Axborot va aloqa	2,2	2,5	-0,3
Sanoat	10,5	9,5	1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,6	11,4	1,2
Boshqa turlari	31,4	30,9	0,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,8	5,7	0,1
Qurilish	9,8	9,8	0

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 77 ni tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 11 taga yoki 16,7 % ga o'sgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Nukus shahar 17 ta (22,1 %i), Qo'ng'iro't tumani 8 ta (10,4 %) va Kegeyli tumani 7 ta (9,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qanliko'l va To'rtko'l tumanlarida 2 tadan (2,6 %), Shumanai va Ellikkala tumanlarida 1 tadan (1,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 45 ta (58,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 15 ta (19,5 %), savdoda 9 ta (11,7 %), qurilishda 3 ta (3,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa yashash va ovqatlanish hamda boshqa turlarda bo'yicha xizmatlarda 2 ta (2,6 %) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (1,3%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10723 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 9,9% ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 3824 tasi (35,7%) Nukus shahriga, 1138 tasi (10,6%) To'rtko'l, 929 tasi (8,7 foizi) Beruniy hamda 726 tasi (6,8%) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10723 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2862 tasi (26,7 %) – savdoda, 1715 tasi (16,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1447 tasi (13,5 %) - sanoatda, 1371 tasi (12,8 %) - qurilishda, 802 tasi (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 760 tasi (7,1%) - tashish va saqlashda, 269 tasi (2,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 179 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1318 tasi (12,2%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil 1 fevral holatiga 214 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 23,0 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahrida (70 ta), To'rtko'l (20 ta), Nukus (16 ta), Amudaryo hamda Qo'ng'iro't tumanlarida (15 tadan) tashkil etilgan. Eng kam Muynoq (4 ta) hamda Kegeili, Taxtako'pir, Shomanai (6 tadan) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (48 ta), qurilishda (40 ta), sanoat va savdoda (37 tadan) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta), tashish va saqlashda (8 ta) hamda axborot va aloqada (1 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 536 tani tashkil etib, ulardan 512 tasi yoki 95,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning umumiy soni 16,6 % hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni 16,1%ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari ke- simida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,7 % yoki 142 tasi yashash va ovqat- lanish xizmatlari, 26,4 % yoki 135 tasi sanoat, 23,0 % yoki 118 tasi savdoda, 7,2 % yoki 37 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,7 % yoki 14 tasi axborot va aloqa, 1,4 % yoki 7 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,8 % yoki 4 tadan qurilish va tashish va saqlash, hamda 10,0 % yoki 51 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika bosh- qarmasi

Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Z.Qalmuratova
(0371) 230-82-23

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan